

«Turonbank» ATB Kengashining
2025-yil “28” noyabr dagi

“K-73”-son qarori bilan

«TASDIQLANGAN»

«Turonbank» ATB Boshqaruvining
2025-yil “24” noyabr dagi

“169/2”-son qarori bilan

“MA‘QULLANGAN”

“Ro‘yxatga olindi” № 1271

**“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKINING
2026-YILGA MO‘LJALLANGAN
BIZNES - REJASI**

Mundarija:

- I. Kirish
- II. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili
- III. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi
- IV. «Turonbank» ATB asosiy ko'rsatkichlari
- V. 2026-yilda bank transformatsiyasi jarayonlari
- VI. 2026-yil uchun balans moddalari
- VII. 2026-yil uchun daromad va xarajatlar prognozi
- VIII. Ilovalar:
 - a. 1-ilova. 2026-yilgi sof foyda rejasi
 - b. 2-ilova. 2026-yilgi daromad va xarajatlar rejasi
 - c. 3-ilova. 2026-yilgi moliyaviy reja
 - d. 4-ilova. 2026-yilgi ta'mirlash rejasi
 - e. 5-ilova. 2026-yilgi asosiy vositalarni sotib olish rejasi

Kirish

Mazkur Biznes-reja "Turonbank" ATB 2026-yilda amalga oshirishni rejalashtirayotgan chora-tadbirlarni, shuningdek 2026-yilgi Bankning moliyaviy rejasini o'z ichiga oladi.

"Turonbank" aksiyadorlik-tijorat banki (keyingi o'rinlarda matnda – Bank) 1990-yil 6-noyabrda tashkil etilgan.

Bankning bosh ofisi quyidagi manzilda joylashgan: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Abay ko'ch., 4a.


Bank O'zbekiston Banklari assotsiatsiyasi, Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi a'zosi va VISA International xalqaro tashkilotining uyushgan a'zosi hisoblanadi.

"S&P Global Ratings" xalqaro reyting agentligi Turonbank kredit reytingini "Barqaror" prognozi bilan "B/B" darajasida tasdiqladi. Bu Bank faoliyatining samaradorligidan va o'z majburiyatlarini bajarganidan dalolat beradi.


Shuningdek "Ahbor-Reyting" agentligi tomonidan 2024-yil yakunlariga ko'ra "Barqaror" prognozi bilan "UzA+" milliy kredit reytingi berildi. Mazkur reyting Bank kredit salohiyatining yuqoriligini, shuningdek kredit tavakkalchiligi darajasi juda pastligini ko'rsatadi.

I. MAKROIQTISODIY TAMOYILLAR

2025-yilning 9 oylik yakunlariga ko'ra, iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashib, asosan, ishlab chiqarish va investitsiya faolligi hisobiga qo'llab-quvvatlandi. Jahon iqtisodiyotida keskin o'zgaruvchanlik va yuqori noaniqlikning saqlanishi sharoitida joriy yilning 9 oyida mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 1 303,7 trln so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati 7,6 foizni tashkil etdi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM o'sishining asosiy omillari sifatida savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 10,6 foizga, sanoat – 6,8 foiz, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 14,6 foiz, qurilish ishlari – 14,2 foiz, qishloq xo'jaligi – 3,6 foiz va boshqa xizmat tarmoqlari – 6,4 foizga o'sdi.



1-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha o'sish.




2-rasm. Iqtisodiyot tarmoqlarining YaIMi o'sishidagi ulushi bo'yicha.

Joriy yilning 9 oyida umumiy inflatsiya darajasi 8,0 foizni (2024-yilda – 10,5 foiz, 2023-yilda – 9,2 foiz, 2022-yilda – 12,2 foiz) tashkil etdi, bunda, yillik inflatsiya darajasi oziq-ovqat mahsulotlarida - 6,7 foizni, nooziq-ovqat mahsulotlarida – 7,1 foiz va xizmatlarda 16,2 foizni tashkil etdi. Prognozlarga ko‘ra, 2026-yil oxiriga qadar umumiy inflyatsiya 7 foizgacha, tashqi inflyatsion bosimning kamayishi va inflyatsion kutilmalarning barqarorlashuvi natijasida 2027-yilda inflyatsiya 5 foizlik target darajasigacha pasayishi va 2028-yildan ushbu daraja atrofida shakllanishi kutilmoqda.

2025- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko‘ra, aholi jon boshiga YAIM hajmi 34 483,9 ming so‘mni hamda 2024- yilning mos davriga nisbatan real o‘shish sur‘ati 5,6 % ni tashkil etdi. Taqqoslash uchun: 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga YAIM hajmi 29 124,8 ming so‘mni tashkil etib, 4,4 % ga o‘sgan.

2025-yilning yanvar-sentabr holatiga ko‘ra, aholi jon boshiga umumiy daromadlar 21,8 mln so‘mni, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning nominal o‘shish sur‘ati 116,1 % ni va real o‘shish sur‘ati 106,3 % ni tashkil etdi.



3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aholi umumiy daromadlari tarkibi. (2025-yil yanvar-sentabr)

2025-yilning yanvar-sentabr oylari bo‘yicha aholining umumiy daromadlari tarkibida (boshqa joriy transfertlar tarkibiga kiruvchi) respublika tashqarisidan kelib tushgan pul o‘tkazmalarining ulushi 21,5 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida, barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 443 613,6 mlrd.so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 115,2 foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar mablag‘lari hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar ulushi 15,9 %ni, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 5,2 %, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lar – 2,0 %, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar – 66,5 %, shundan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – 41,3 %, aholi mablag‘lari – 5,9 %, Respublika budjeti – 4,2 %, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi – 0,3 %.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning 2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o‘shish sur‘atlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)

– 148,9 %, O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar - 117,2 %, Respublika budjeti – 110,7 %, aholi mablag‘lari – 105,6 %, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 117,0 %, korxonalar mablag‘lari – 114,5 %, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lar – 108,9 %.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha past o‘shish sur‘atlari: Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi – 72,8 %, Boshqa va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar – 86,5 %.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 722 166,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga o‘tdi.

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o‘shishiga moliyaviy xizmatlarning 24,5 % ga (ko‘rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o‘shishidagi ta‘siri 4,1 punkt), transport xizmatlari 12,1 % ga (o‘shishdagi ta‘siri 2,3 punkt), savdo xizmatlari 12,9 % ga (o‘shishdagi ta‘siri 2,3 punkt), yashash va ovqatlanish xizmatlari 8,7 % ga (o‘shishdagi ta‘siri 1,8 punkt) aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 20,4 % ga (o‘shishdagi ta‘siri 1,4 punkt) o‘shishi ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi.

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi sharhi

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar qoldig‘i 2025-yil III chorak yakunlari bo‘yicha 582,2 trln.so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9% o‘shish kuzatilgan. Bank kreditlarining 35,8 foizi jismoniy shaxslarga, qolgan 64,2 foizi yuridik shaxslarga berilgan. Bank tizimi jami kredit portfeli tarkibida Davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 67,8% va 32,2% nisbatni tashkil qilmoqda. Tijorat banklari jami depozit portfeli 371,5 trln.so‘mga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 29,5% o‘shish kuzatilgan. Bank tizimi depozit portfelida jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar ulushi mos ravishda 38,8% va 61,2%ni tashkil qilgan. Bank tizimi depozit portfelida Davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar xissasi mos ravishda 52,3% va 47,7%ni ko‘rsatdi.

Global muammolarga qaramay, O‘zbekiston barqaror iqtisodiy o‘shishni namoyon etishda davom etmoqda. 2025-yil yakuniga qadar mamlakat YaIMi 7 foizga o‘shishi, jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM esa 3 500 AQSh dollaridan oshishi kutilmoqda.

“Asian Development Outlook 2025” (Osiyo Taraqqiyot Bashorati 2025) nashrining sentabr soniga ko‘ra, O‘zbekistonning YAIMi joriy yilda 6,6 foizga, 2026-yilda esa 6,7 foizga o‘shishi prognoz qilinmoqda.

Xalqaro valyuta jamg‘armasi 2025-yil oktyabrdagi hisobotiga ko‘ra O‘zbekiston YaIM o‘shishini 6,8 foiz bo‘lishini prognoz qilmoqda:

	2025	2026	2027	2028	2029	2030
YaIM (joriy narxlarda) mlrd.dollarda	137,48	159,20	178,04	197,32	217,90	240,77
YaIM o‘shish sur‘ati, foizda	6,8	6,0	5,7	5,7	5,7	5,7
Aholi jon boshiga YaIM hajmi, AQSh dollarda	3 646,60	4 135,83	4 530,22	4 917,49	5 318,71	5 755,94
Jon boshiga YaIM, joriy narxlarda (xarid qobiliyati pariteti) AQSh dollarda	12 558,99	13 275,70	13 974,94	14 704,32	15 490,97	16 340,30

II. O‘ZBEKISTON BANK SEKTORI

Markaziy bank boshqaruvining “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qarori Adliya vazirligida 2025-yil 21-aprelda 2693-13-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

Mazkur o‘zgartirish va qo‘shimchalar banklar moliyaviy barqarorligini ta‘minlash uchun kapital monandligi bo‘yicha talablarni Bazel 3 standartiga muvofiqlashtirish maqsadida ishlab chiqildi.

Ushbu hujjatga muvofiq banklar I darajali qo‘shimcha kapitali tarkibiga (AT1) kapitalga tenglashtirilgan nokumulyativ muddatsiz vositalar kiritilishi mumkinligi belgilandi hamda kapital vositalariga belgilangan talablar yuqorida qayd etilgan standart talablariga muvofiqlashtirildi.

Shu bilan birga, 2025-yil 1-iyundan boshlab kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan jami qoldiq summasi bank regulyativ kapitalining 0,2 foizidan oshmagan, biroq eng ko‘pi bilan 15 mlrd. so‘mgacha kreditlarga nisbatan 75 foizli tavakkalchilik darajasi belgilandi.

O‘zbekiston banklarining aktivlari sentabr yakunlariga ko‘ra yil boshidagiga nisbatan 12,7%ga, kredit portfeli 9.6%ga, depozit portfeli esa 20,3%ga oshdi.

Depozitlar

Tijorat banklari jami depozit portfeli 371,5 trln.so‘mga yetib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 29,5% o‘shish kuzatilgan. Bank tizimi depozit portfelida jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar ulushi mos ravishda 38,8% va 61,2%ni tashkil qilgan. Bank tizimi depozit portfelida Davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar xissasi mos ravishda 52,3% va 47,7%ni ko‘rsatdi.

Nisbatan qat‘iy pul-kredit sharoitlari fonida milliy valyutadagi depozitlar foiz stavkalari jozibadorligi saqlanib, milliy jamg‘armalar oshib borishiga xizmat qilmoqda.

Xususan, aholining muddatli depozitlari bo‘yicha o‘rtacha nominal foiz stavkalari 2025-yilning avgust oyida 21 foizga, real foiz stavka esa 8,2 foizga teng bo‘ldi.

Natijada, joriy yil boshidan milliy valyutadagi jami depozitlar qoldig‘i 23 foizga oshib, 1-oktyabr holatiga 205 trln so‘mni tashkil etdi.

Yuqori stavkalar depozit bazasi o‘shishiga olib keldi, fuqarolarning muddatli omonatlari bo‘yicha o‘rtacha daromadlilik – 21,4%, yuridik shaxslarning omonatlari bo‘yicha – 17,9%dan.

Kreditlar

Tijorat banklari tomonidan ajratilgan jami kreditlar qoldig‘i 2025-yil III chorak yakunlari bo‘yicha 582,2 trln.so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,9% o‘shish kuzatilgan. Bank kreditlarining 35,8 foizi jismoniy shaxslarga, qolgan 64,2 foizi yuridik shaxslarga berilgan. Bank tizimi jami kredit portfeli tarkibida Davlat ulushi mavjud banklar va boshqa banklar tomonidan ajratilgan kreditlar hajmi 67,8% va 32,2% nisbatni tashkil qilmoqda.

Tijorat banklarining jami kredit qo‘yilmalari yil boshiga nisbatan qariyb 9,2%ga oshdi. Kredit qo‘yilmalari tarkibida 2025-yil III chorak yakunlariga xorijiy valyutada berilgan kreditlar ulushi 39%ni, o‘tgan yilning mos davriga esa 44%ni, yil boshida 43%ni tashkil qilgan bo‘lib, bu

o'z navbatida o'zbek so'mining xorijiy valyutalarga nisbatan qadringing oshishi ta'sir ko'rsatgan. Jumladan, so'mning AQSh dollariga nisbatan deyarli 7%ga qadri oshdi, bu esa kredit portfelida xorijiy valyutadagi kredit qo'yilmalari ulushining tushushiga olib keldi.

Yil boshidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kredit qoldig'i 177,5 dan 208,6 trln. so'mgacha (+17,5%) o'sdi. Ipoteka kreditlari bo'yicha portfel 12,3%ga, mikroqarzlilar bo'yicha – 50,6%ga, ta'lim ssudalari bo'yicha – 8,0%ga, Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar 5,9%ga o'sdi. Avtokredit, Iste'mol kreditlari va boshqa kreditlar 1,0%ga kamaydi.

Sentabrda jismoniy shaxslar uchun so'mdagi kreditlar (mikroqarzlardan tashqari – 33,1%) bo'yicha o'rtacha stavka 23,7%ga, yuridik shaxslarda esa 23,1%ga yetdi.

Kapital

Bu yil moliyaviy institutlarning jami kapitali qariyb 13,6%ga o'sdi va 1-oktabrga kelib 130,4 trln. so'mni tashkil etadi, bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,4%ga ortiqdir.

O'zbekistonda 2025-yil boshidan banklar ustav kapitali miqdoriga oid talablar o'zgarishi va uning minimal miqdori 500 mlrd. so'm qilib belgilanishi bilan bog'liqdir.

Bank tizimi bo'yicha Kapital monandlik darajasi 2025-yil boshida 17,4%ni, I darajali kapital monandlik darajasi 14,3%ni tashkil qilgan bo'lsa, III chorak yakuniga mos ravishda 18,2% va 15,1%gacha o'sish kuzatildi.

Foyda

O'zbekiston banklarining jami foydasi sezilarli darajada oshdi. 2025-yilning birinchi to'qqiz oyida bank tizimi 10 876 mlrd. so'm sof foyda oldi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 34,7% ortiqroqdir. Shuningdek, banklar sof foyda bo'yicha 2024-yil yakuniga nisbatan ham 56,1% ortiqroq daromad olishga ulgurdi.

Bank tizimi o'tgan 9 oyda 93 trln. so'mdan ortiqroq foizli daromad olib, o'tgan yilga nisbatan 15,0 % ko'proqdir. Foizli marja 14,0 %ga ortiqroq, banklar foizsiz daromad olish bo'yicha 2024-yilning birinchi 9 oyligiga nisbatan 37,9% oshiqroq olishga ulgurdi va 52,8 trln. so'mni tashkil qildi. Mamlakat banklarining 1-oktabrdagi holatga ko'ra kreditlar va lizing bo'yicha ehtimoliy zararlari bahosi 18,6 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,3% ortiqroqdir. Shuningdek, banklar boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash xarajatini 8,6 trln. so'mga yetkazib o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80,0%ga ko'proq amalga oshirdi.



III. «TURONBANK» ATB ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

«Turonbank» ATB – aktivlari miqdori bo‘yicha O‘zbekiston banklari orasida 13-o‘rinni egallagan davlat tijorat banki. Bankning mijozlar bazasi bozorning barcha segmentlari, yuridik va jismoniy shaxslardan tashkil topgan. Bugungi kunga kelib bankda qariyb 1400 nafar xodim ishlaydi. Bank O‘zbekistonning barcha hududlarida 15 ta Bank xizmatlari markazlariga ega.

Turonbank II guruh banklari tarkibiga kiradi, quyidagi jadvalda ushbu guruh banklarining ayrim ko‘rsatkichlari solishtirilgan.

T/r	Bank nomi	Aktivlar	Kapital	Kredit portfeli	Depozit portfeli	Sof foyda
1	«Turonbank» ATB	20 391,2	2 088,0	14 048,7	6 811,3	20,8
2	«Mikrokreditbank» AJ	29 055,0	5 682,3	20 352,4	9122,6	103,9
3	«Ipak yo‘li» AITB	25 228,8	4 281,1	15 669,5	12 427,4	348,1
4	«KDB Bank O‘zbekiston» AJ	12 277,6	2 367,8	3 462,0	7 186,2	568,6
5	«Trastbank» ATB	13 146,7	3 500,6	7 675,8	8 769,7	700,7
6	«Orient Finans» XATB	18 301,8	3 818,2	13 779,0	12 085,6	864,5
7	«Invest Finans Bank» ATB	13 701,7	1 802,3	8 397,9	9 820,1	98,8
8	«Asia Alliance bank» ATB	8 523,3	1 125,6	3 738,6	6 162,9	196,9
9	«ANORBANK» ATB	14 240,1	1 306,8	9 196,5	12 288,1	154,0
10	«Davrbank» XATB	11 694,0	1 922,8	8 600,5	4 319,8	405,9


Manba: * O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb saytining banklar bo‘yicha 2025-yil 1-noyabr holatiga axboroti.

I guruh banklariga yuqori aktivlarga ega moliyaviy muassasalar kiradi. Ushbu guruhga «O‘zmilliybank», «O‘zsanoatqurilishbank», «Asakabank», «Agrobank», «Ipoteka-bank», «Xalq banki», «Biznesni rivojlantirish banki», «Aloqabank», «Kapitalbank» va «Hamkorbank» kiradi.

Qolgan tijorat moliyaviy muassasalarini III guruh banklariga kiritish mumkin. Ular «Universal Bank», «Ziraat Bank Uzbekistan», «Garant Bank», «Okto Bank», «Tenge Bank», «TBS Bank», «Saderat Bank», «Poytaxt Bank», «Madad Invest Bank» va h.k.


Bankning jami aktivlari

2024-yil yakunlariga ko‘ra jami aktivlar 17,6 trln. so‘mni tashkil etdi. 2025-yilning 1 noyabr holatiga esa – 20,4 trln. so‘mni, o‘sish 15,9% yoki 2,8 trln. so‘mni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichning o‘sishi Bankning kredit siyosati bilan bog‘liqligini qayd etib o‘tish zarur, bunda jami aktivlarda kredit portfeli ulushi 69%ni tashkil etadi.



Bankning jami kapitali


Bank barqarorligining muhim ko'rsatkichi hisoblangan uning kapitali 2025-yil boshida 1 919 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa joriy yilning 11 oyligida esa 2 088 mlrd. so'mni tashkil qildi, 2025-yil oxirigacha ko'rsatkich 2 097 mlrd. so'mga yetishi kutilmoqda.



Kapitalning yetarlilik koeffitsiyenti 0,73%ga pasaydi va 13,3%ni tashkil etdi.

Bankning kredit portfeli

Rejali ish olib borilishi natijasida Bankning kredit portfeli 2025-yil 1 noyabr holatiga 1,5 trln. so'mga o'sdi va 14,0 trln. so'mni tashkil qilmoqda. Yil oxirigacha Bank portfeli 14,5 trln. so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Portfelning o'sishi kichik va o'rta biznes, shuningdek chakana biznes mijozlarini kreditlash hisobiga ta'minlanganini qayd etish lozim.



Kredit portfeli	01.01.2024	01.01.2025	01.11.2025
Korporeyt	4914,1	6151,5	5853,6
KO'B	4456,1	4210,7	4835,9
Chakana	2525,1	2195,3	3359,5
Jami	11 895,3	12 557,5	14 048,7

Korporativ kredit portfeli 5,8 trln. soʻmni tashkil etdi va yil boshidan 5%ga kamaydi. Sanoat va qurilish asosiy oʻsish sektorlari hisoblanadi.

KOʻB kredit portfeli 4,8 trln. soʻmni tashkil etdi va yil boshidan 15%ga oʻsdi. Qishloq xoʻjaligi sektori, shuningdek savdo va xizmatlar koʻrsatish sohasi asosiy oʻsish sektorlari hisoblanadi.

Chakana kredit portfeli yil boshidan 53%ga oshib 3,4 trln. soʻmni tashkil etmoqda. Yil davomida xususiy mijozlarga 1,7 trln. soʻm miqdorida kreditlar berildi.


Ipoteka kreditlari portfeli 12,5%ga oʻsdi, uning hajmi esa 1,2 trln. soʻmni tashkil etdi.


Isteʼmol kreditlari portfeli (avtokreditlar) yil boshidan 49,0%ga oshdi va 1,4 trln. soʻmni tashkil etdi.

Kredit portfeli sifati barqarorligicha qoldi — muddati oʻtgan qarz ulushi 3,01% darajasida boʻldi.

Bank depozit portfeli

2025-yil yanvar-oktyabrda Turonbank depozitlari portfeli qariyb 6,8 trln. soʻm koʻrsatkichiga yetib, 24,4%ga koʻpaydi.





Jismoniy shaxslarning mablagʻlari 2,4 trln. soʻmni tashkil etdi va yil boshidan 21%ga oʻsdi.

Yuridik shaxslarning mablagʻlari 4,3 trln. soʻmga yetib, 900 mlrd. soʻmga yoki 26%ga oshdi.

Samaradorlikning asosiy koʻrsatkichlari

Sof foizli daromadlar 1-noyabr holatiga 287,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi, yil oxirigacha ushbu koʻrsatkich 20%ga oʻsish kutilmoqda.

Operatsion xarajatlar 2025-yilning 10 oyida 399,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi, yil oxirigacha ushbu koʻrsatkich 483,7 mlrd soʻmga yetishi prognoz qilinmoqda.

2025-yilning 1-noyabriga xarajatlarning daromadlarga nisbati (CIR) 78,9%ni tashkil etdi.

2025-yilning 1 noyabr holatiga Turonbankning **sof foydasi** 20,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi, bunda **Kapital rentabelligi** 1,3% boʻldi. 2025-yil oxirigacha 24,5 mlrd. soʻm olish rejalashtirilmoqda.

IV. 2026-YILDA BANKNING BARQAROR RIVOJLANISHI

2025-yilning 7-fevral kuni Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi toʻgʻrisidagi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonni amalga oshirish va bankning xalqaro hamkorlari talablarini bajarish maqsadida, “Turonbank” ATBda quyidagi tadbirlar va ishlar amalga oshirilmoqda.

Turonbankda “Yashil iqtisodiyot” yoʻnalishida faoliyat yurituvchi boʻlim tashkil etilgan. Ushbu boʻlimning Nizomi Turonbank Kengashi tomonidan tasdiqlangan. Raisning masʼul oʻrinbosarini tayinlash va vazifalar taqsimoti toʻgʻrisida buyruqlar tuzilgan.

Bundan tashqari, Bankda Xalqaro talablarga muvofiq amalga oshirilayotgan transformatsiyalar doirasida Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) bilan birgalikda Turonbank ATB oʻz faoliyatida bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarda ham Ekologik va ijtimoiy

risklarni boshqarish tizimini (ESRM) joriy etish bo'yicha ishlarni boshlagan. ESRM tizimi tashkiliy resurslar va me'yoriy hujjatlardan tarkib topgan.

XMK maslahatchilari bilan birgalikda bankning umumiy xatarlarni boshqarish tizimiga yanada yaxshiroq tatbiq etish maqsadida, Bosh ofisning ESRM Tizimi ishida ishtirok etuvchi xodimlari uchun "Turonbankda ESRM tizimi" mavzusida muntazam ravishda o'quv seminarlar o'tkazilgan. Bundan tashqari, XMK maslahatchilari bilan birgalikda Kuzatuv kengashi a'zolari uchun "Turonbankda ESRM tizimi" va "ESRM tizimini Kuzatuv kengash va bank faoliyatiga integratsiya qilish rejasi" mavzularida treninglar o'tkazildi.

Bank Kuzatuv kengashi har chorakda kamida bir marta o'z majlislarining kun tartibiga ESRM masalalarini kiritadi. Shuningdek, ESRM masalalari bankning kredit jarayoni va korporativ boshqaruvni tartibga soluvchi asosiy ichki me'yoriy hujjatga kiritilgan.

Bank o'z faoliyatida ESRM sohasida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va faoliyat standartlariga amal qiladi. XMK, shuningdek, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki loyihalarini amalga oshirishga qo'yiladigan talablar bankning ichki me'yoriy hujjatlariga integratsiyalashgan va ularni bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha amaliyotda qo'llanilmoqda. Shuningdek, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, JICA dan jalb qilingan mablag'lar orqali moliyalashda ekologik va ijtimoiy talablar qo'llanilmoqda.

Shuningdek, kredit qo'mitasida ko'rib chiqiladigan loyihalar bo'yicha ekologik va ijtimoiy risklar yuzasidan xulosalar tayyorlanmoqda. 2023 yil mart oyidan boshlab 453 loyiha bo'yicha baholash o'tkazilgan (2025-yil davomida 211 loyiha). Baholash Turon ECO excel fayl vositasi yordamida amalga oshiriladi.

2024-yilda Bank barqaror rivojlanish (ESG) va yashil iqtisodiyot bo'yicha yo'l xaritasini ishlab chiqilgan bo'lib, u 2025-yilda I faza yakunlanadi. Asosan quyidagilarga e'tibor beriladi:

- **Environmental** yoki atrof-muhitni muhofaza qilish Bank ekologiya haqida qanchalik qayg'urayotganini va o'ziga yetkazilgan ziyonni qisqartirishga qanday urinayotganini belgilaydi.
- **Social** yoki jamiyat manfaatlarini himoya qilish Bankning xodimlarga, yetkazib beruvchilarga, mijozlarga, hamkorlarga va iste'molchilarga munosabatini ko'rsatadi.
- **Governance** yoki korporativ boshqaruv hisobotlarning shaffofligini, top-menejmentda xotin-qizlarning ishtirokini, aksiyadorlar bilan munosabatlarni va korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni anglatadi.

V. 2026-YILDA BANK TRANSFORMATSIYASI JARAYONLARI

Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) bilan hamkorlikda "Turonbank" ATBni 2022-2025-yillarda to'liq transformatsiya qilish bo'yicha "yo'l xaritasi"ni amalga oshirishni yakuniga yetkazish, 2026-yilga mo'ljallangan bankni transformatsiya qilish "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish, "**Xususiylashtirish**"ga qaratilgan ustuvor vazifalarni hamda bankda Loyiha qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan **loyihalarni** amalga oshirish.

Loyihalarni boshqarish ofisi tomonidan 2026-yil uchun bankning Transformatsiya bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda uning amalga oshirilishi ustidan monitoring va nazoratni amalga oshirish.

Transformatsiya jarayonlari bilan bir qatorda IFC tomonidan "Turonbank" ATBni xususiylashtirish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha ishlarni davom ettirish.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) bilan bankka **investitsiyalarni jalb qilish** masalalari bo'yicha muzokaralarni yakuniga yetkazish.

Bugungi kunga qadar xususiylashtirish bo'yicha Investitsiyalarni jalb qilishni jadallashtirish maqsadida KPMG bilan birgalikda **AQR (Asset Quality Review)** auditori o'tkazilib, yakuniy hisobot (final report) olindi hamda IFC tomonidan kompleks tekshiruvi (**Due Diligence**) o'tkazildi va investitsiya guruhi tomonidan bank faoliyatiga ijobiy baho berildi. Xususiylashtirish jarayonlari bo'yicha ishlarni davom ettirgan holda, quyidagilarni amalga oshirish:

- **50 million AQSH dollaridan** oshmaydigan miqdorda Xalqaro Moliya Korporatsiyasi (IFC) ning kredit liniyasini jalb qilish – shundan, **25 mln. AQSH dollarini (Convertible loan)** kapitalga konvertatsiya qilish imkoniyati bilan jalb qilish;
- Kuzatuv Kengashining yangi tarkibini shakllantirish, ya'ni, mustaqil direktorlar sonini **5 nafargacha** yetkazish hamda "Turonbank" ATB Kuzatuv kengashi raisini mustaqil direktorlar orasidan saylash;
- "Turonbank" ATBning davlat dasturlarini amalga oshirishdagi (**direktiv, ma'muriy kreditlash**) ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish;
- **Bank faoliyatiga xos bo'lmagan** aktivlarning sotilishi/yoki realizatsiya qilinishini ta'minlash.

Bankning barcha strategik loyihalarni samarali amalga oshirish va monitoring qilish maqsadida loyihalarni boshqarish madaniyatini yanada oshirish va **Loyiha qo'mitasi yig'ilishlarini muntazam ravishda o'tkazish** orqali loyihalar nazoratini amalga oshirish.

Bankda barcha loyihalar shaffofligini, nazoratini va samarali boshqaruvini ta'minlash maqsadida **loyihalarning yagona ma'lumotlar bazasini (reestri)** doimiy ravishda joriy holatga yangilab borish.

VISA kartalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishni joriy etish orqali bankning **Protssessing markazini** ishga tushirish, shuningdek, muammoli qarzdorliklarni undirish bo'yicha **"Undiruv" tizimini** joriy etish va monitoring qilish.

Kontakt-markaz uchun **Alo CRM tizimi (in-house) va marketing CRM tizimi (Bitrix24)** kabi amalga oshirilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash ishlarini olib borish, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar uchun **skoring tizimi** va masofaviy bank xizmatlarining zamonaviy tizimlarini joriy etish bo'yicha loyihalarni amalga oshirishni muvofiqlashtirish.

Xodimlarni boshqarish

Eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholashni bankning barcha yo'nalishlari bo'yicha qayta ko'rib chiqish, amaliyotga to'liq joriy qilish va monitoringini olib borish.

Mijozlar servisi va marketing departamenti bilan hamkorlikda Turonbank HR brendini rivojlantirish ishlarini olib borish.

Xodimlar uchun qoniqish hissini aniqlashtiruvchi (NPS) so'rovnoma-anketalarni yo'lga qo'yish.

Xodimlarning ta'lim ehtiyojlarini to'g'ri tahlil qilish, o'qitish dasturlarini (modullarini) ishlab chiqish, shu jumladan o'zgarishlarni boshqarish va yetakchilik bo'yicha treninglarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun elektron o'qitish tizimini joriy etish

Bank xodimlarini xorijiy davlatlardagi tashkil qilinayotgan o'quv seminarlarda ishtirokini ta'minlash.

Biznes yo‘nalishlar

Mijozlar bazasini Bank Bank xizmatlari markazlari tarmog‘i qo‘llab-quvvatlaydigan 3 ta segment – korporativ, KO‘B va chakana segmentga bo‘lishni nazarda tutuvchi yangi tijorat biznes-modelini joriy etish. Maqsadlarning muhim yo‘nalishlari:

- Chakana segment: “Chakana biznesni rivojlantirish Strategiyasi” ishlab chiqiladi. Mijozlarni mass, mass affluent, affluent va premium segmentlarga ajratgan holda har bir segment uchun mahsulotlar paketini ishlab chiqish. BXM va BXOlarda chakana biznes yo‘nalishi bo‘yicha yangi xizmat ko‘rsatish standartlarini joriy qilish.
- KO‘B segmenti: “Kichik va o‘rta biznesni 2024-2027-yillarda rivojlantirish Strategiyasi”ni amalyotga joriy etiladi. Kichik va o‘rta biznes departamentiga tegishli bo‘lgan biznes-jarayonlarlar takomillashtirib boriladi.
- Korporativ segment: korporativ banking e‘tiborini mijozning to‘liq hamyonini (aylanmasini) maksimallashtirishga hamda korporativ segment mablag‘laridan chakana, kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirish mexanizmi sifatida foydalanishga qaratish.
- Davlat dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan loyihalarni samaradorlik va o‘zini o‘zi qoplash, pul oqimlari tahlili asosida kreditlashga ustuvorlik qaratish.
- Davlat dasturlar asosida ajratilgan kreditlar bo‘yicha monitoring jarayonlarini kuchaytirish, bunda potensial muammoli bo‘lgan loyihalarga tegishli qarzdorliklarni muddatidan avval qaytarish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish.
- Bank xizmatlari markazlari tarmog‘i: Samarqand BXM va BXOda transformatsiya pilot loyihasini ishga tushirish. Sotish va strategik mijozlar segmentlariga xizmat ko‘rsatishning samarali dastagiga aylantirish maqsadida Bank xizmatlari markazlar tarmog‘i tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish.
- Samarqand BXMda joriy qilingan pilot loyihani bankning barcha BXMlarida tadbiq etish.

G‘aznachilik va moliya

Xorijiy valyutalarda vakillik hisobraqamlarini ochish.

Dastlab, Amerika Qo‘shma Shtatlarining “The Bank of New York Mellon” bankida AQSH dollarida nostro vakillik hisobraqamini ochish, shu bilan birga boshqa nufuzli xorijiy banklarda ham vakillik hisobraqamlarini ochishga erishish.

Valyuta ayirboshlash tizimini isloh qilish. XMK mutaxassisleri bilan muhokama va o‘rganishlardan so‘ng, kunlik valyuta ayirboshlash kurslarini belgilashga birmuncha o‘zgartirish kiritish.

Davlat qimmatli qog‘ozlariga investitsiyalar kiritish metodologiyasini ishlab chiqish. Hukumat tomonidan chiqarilgan davlat qimmatli qog‘ozlarini sotib olish bo‘yicha xalqaro tajribalarga asoslangan yangi metodologiya ishlab chiqish.

Tavakkalchiliklarni boshqarish

Korporativ, kichik va o‘rta biznes hamda chakana segmentlari yo‘nalishlari bo‘yicha kredit risklarini samarali boshqarish tizimini takomillashtirish maqsadida Skoring modellarini takomillashtirish.

Zamonaviy stress test ssenariylarini ishlab chiqib, ularni amaliyotga tadbiiq etish orqali bank moliyaviy holatini xolisona baholab borish.

Bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan risk appetiti ko'rsatkichlarini doimiy monitoring qilib borish.

Bank boshqaruvi, Bank Kengashiga o'rnatilgan tartibda bank moliyaviy holati yuzasidan hisobotlar taqdim etish va ular orqali birinchi himoya chizig'i bo'linmalariga vazifalar yuklash hamda ko'rsatma berish.

Raqamli texnologiyalar va IT

Bankning axborot tizimlarini ISO SWIFT 20022 tizimi bilan integratsiya qilish va funksional imkoniyatlarini rivojlantirish.

- Mobil banking tizimini modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirish.
- Internet-banking platformasini rivojlantirish hamda operatsiyalarning xavfsizligi va samaradorligini oshirish.
- CRM va mijozlar segmentatsiyasi tizimini rivojlantirish, personallashtirilgan xizmatlar imkoniyatlarini kengaytirish.
- Colvir ABT tizimi uchun yangi dasturiy modullarni ishlab chiqish, sotib olish va joriy etish.
- DWH (Ma'lumotlar ombori) platformasini yaratish va analitika darajasini oshirish.
- Sun'iy intellektga asoslangan dasturiy ta'minot va yechimlarni joriy qilish (AI agentlar, botlar, assistentlar, analitika va boshqa AI yechimlari).
- Kredit risklarini samarali baholashni avtomatlashtiruvchi yangi skoring tizimini joriy qilish.
- Bankning integratsiya muhitini rivojlantirish maqsadida ESB (Enterprise Service Bus) platformasini joriy etish.
- Colvir uchun SDK xarid qilish orqali ichki integratsiyalarni jarayonlarini tezlashtirish.
- Kontakt-markaz uchun qo'shimcha modullarni joriy qilish (aloqa sifatini va avtomatlashuv darajasini oshirish).
- Mavjud dasturiy tizimlarni rivojlantirish va optimallashtirish (qo'shimcha funksional imkoniyatlar, ishlash tezligi, xavfsizlik).
- Yangi biznes talablar asosida qo'shimcha dasturiy modullarni ishlab chiqish va tatbiq etish.
- Bankning 2024-2027 yillarga mo'ljallangan IT-strategiyasini samarali amalga oshirib borish.

Kiberxavfsizlik choralar

Kiberxavfsizlik jarayonlarini birlashtirish (orchestration), avtomatlashtirish (automation) va javob qaytarishni (response) tezlashtirish uchun ishlatiladigan axborot xavfsizligi sohasidagi texnologiya va platformasi (SOAR)ni joriy qilish.

Operatsion samaradorlik

COLVIR avtomatlashtirilgan bank dasturini takomillashtirish maqsadida dasturchi mutaxassislar hamkorligida ishlash, biznes jarayonlarini maqbullashtirish orqali qulay, tez, sifatli amaliyotlarni yo'lga qo'yish.

Yuridik mijozlar uchun ishlab chiqilgan Turon Business internet bank ilovasiga yangi funksiyalarni, ya'ni valyuta nazorati, kafolatlar va boshqarishni kiritish.

VI. 2026-YILGI BALANS HISOBOTI MODDALARI

1. BANKNING JAMI AKTIVLARI

2025-yil oxiriga kelib jami aktivlar 20,7 trln. so'mni tashkil etadi. 2026-yilda aktivlar qoldig'i 22,8 trln. so'm darajasida bo'lishi kutilmoqda, o'sish esa 10,1 foiz darajasida bo'lishi rejalashtirilmoqda. Ushbu o'sish kredit portfelining barqarorligi bilan baholanmoqda.

	Dek. 24	Noyabr. 25	Dek. 25*	Dek. 26*	%
AKTIVLAR	17585,3	20391,2	20705,0	22996,8	11%
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	610,6	626,2	639,0	653,6	2%
O'zR MBdan olinadigan	271,3	606,9	535,0	723,7	35%
Boshqa banklardan olinadigan, sof Oldi-sotdi uchun qimmatli qog'ozlar	821,2	990,8	971,0	983,9	1%
Kreditlar va lizing operatsiyalari, Korporativ	986,1	760,5	757,0	774,5	2%
KO'B	12557,5	14048,7	14500,0	16333,2	13%
Chakana	6151,5	5853,3	5900,0	6115,8	4%
Ehtimoliy zararlar rezervi	4210,7	4835,9	5025,0	6293,1	25%
Asosiy vosita va mol mulklar	2195,3	3359,5	3575,0	3924,3	10%
Boshqa aktivlar	-151,5	-152,9	-176,0	-247,1	40%
	702,6	981,9	1153,0	961,2	-16%
	1697,0	2529,0	2326,0	2813,8	18%

Pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari 2026-yil oxiriga kelib 2025-yil oxiridagi prognozga nisbatan 653,6 mlrd. so'mni tashkil etadi (2%ga oshish).

Qimmatli qog'ozlar – Bankning likvidligini ta'minlagan holda daromadni ko'paytirish rejalashtirilmoqda. O'sish 2% va 774,5 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Kredit portfeli – 2025-yil oxiriga qoldiq 14,5 trln. so'mni tashkil etadi. Yil oxirigacha 16%ga oshirish rejalashtirilmoqda.

Bankning kredit portfeli 2026-yilga kelib (prognoz) 16 333,2 mlrd. soʻmni yoki 13 foizga oʻsishi kutilmoqda.

Bank ichki resurslar hisobiga hamda xorijiy moliyaviy va bank institutlari mablagʻlarini jalb etish hisobiga milliy va xorijiy valyutalarda kredit operatsiyalarini amalga oshirishni rejalashtirmoqda. 2026-yilda Bank kredit portfelini (brutto) 1,9 trln. soʻm ekvivalentidagi summagacha oshirishni rejalashtirmoqda.

Bank tasdiqlangan Kredit siyosatiga asosan oʻz kredit faoliyatini amalga oshiradi, uning maqsadi samarali, foyda keltiradigan kredit faoliyatini taʼminlash, kredit tavakkalchiliklarini nazorat qilish va ularni pasaytiruvchi dastaklardan foydalanish, shu jumladan beriladigan kreditlar toifalari va turlarini diversifikatsiyalash, ular boʻyicha qabul qilinadigan taʼminot hisobiga, Bank likvidligini belgilangan normativ darajasida tutib turish hisoblanadi.

Kreditlar berish va loyihalarni moliyalashtirish



TARMOQLAR KESIMIDA AJRATILADIGAN KREDITLAR



2026 yilda kredit faoliyati va loyihani moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun "Turonbank" ATB 5150,0 mlrd. soʻmlik summadagi kredit va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rejalashtirmoqda. Natijada 25 mingta ish oʻrnini yaratish koʻzda tutilgan. Shundan 2,0 trln. soʻm (40%) kichik va oʻrta biznesga, 1,8 trln. soʻm (35%) – yirik korxonalariga, va 1 250,0 mlrd. soʻmni (25%) chakana kreditlarga yoʻnaltirish rejalashtirilmoqda. 2025-yilda qishloq xoʻjaligi hamda savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish, qurilish va boshqa xizmatlar, turizm va

transport, ta'lim va sog'liqni saqlash kiradigan xizmatlar ko'rsatish sohasini qo'llab-quvvatlash rejalashtirilmoqda.

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga hissa qo'shishi kutilayotgan bir qator yirik ishlab chiqarish va servis korxonalarini misol sifatida keltirish mumkin.



Xususan, "TUFT AND GRASS" MCHJ. 2,1 million dollar miqdoridagi bank krediti hisobiga zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlanadi, shuningdek aholi sifatli gilam va gilam mahsulotlari bilan ta'minlanadi va eksport yo'lga qo'yiladi. Loyihani amalga oshirish natijasida 400 tadan ortiq ish o'rni yaratiladi.

Bundan tashqari, "YONG XIN" MCHJning ishlab chiqarish tashkil etish maqsadida 5,0 mln.dollarlik qiymatdagi loyihani amalga oshirildi, 20,0 mln.dollarni o'z mablag'lari hisobiga realizatsiya qilish ko'zlanmoqda. Korxonaning yillik quvvati 7,5 mln tonna kv.metr kafel va plitkalar ishlab chiqarishdan iborat.

Xuddi shu kabi "OQTOSH TEKSTIL" MCHJda sochiq (tekstil) ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish misolida xam ko'rish mumkin. Korxonaning yillik quvvati yiliga 4 ming tonna sochiq mahsulotlari ishlab chiqarishdan iborat.

LIMONCHILIK SOHASI

	2020 yil (1.10.2020 holatiga)	o'sish 2,6% 3,2% 3,2%	2025 yil (1.10.2025 holatiga)
LIMONZOR MAYDONI	791 GEKTAR	+1 266 2,6%	2 057 GEKTAR
JAMI TASHABBUSKORLAR, SHUNDAN	12 530 TA	+28 555 3,3%	41 085 TA
AHOLI XONADONIDA	12 234 TA	+27 588 3,2%	39 822 TA
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA	296 TA	+967 4,3%	1 263 TA
YETISHTIRILGAN LIMON HAJMI	25 MING TONNA	+25 2%	50 MING TONNA

SOHADAGI ILMIY IZLANISHLAR

Limon o'simligini energiya qaramlikdan ozod etish va sovuqqa chidamli navini yaratish bo'yicha 2022 yildan boshlab ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi.

Markaziy Osiyeda ilk bor yangi limon navi ochiq maydonda havoning noqulay sharoitlarida sinovdan o'tkazilmoqda va patentlanadi. (N.Faxrutdinov)

Ilmiy tadqiqot ishlari yakuniy bosqichga keldi, 2025 yildan ko'chatlarni ko'paytirish boshlanadi.

YANGI LIMON NAVLARI YARATILDI

- ✓ O'zbekiston
- ✓ Zayniddin
- ✓ ZM San'at
- ✓ Toshkent-1
- ✓ Turon

BALIQCILIK SOHASI

LOYIHALAR SONI	LOYIHALAR QIYMATI	O'Z MABLAG'LARI
47 TA	155 mlrd. so'm	90 mlrd. so'm
BANK KREDITI	ISH O'RNI	
65 mlrd. so'm	424 TA	

BALIQCILIK SOHASIGA XORIY TAJRIBASINI JALB QILISH

Zamonaviy intensiv va superintensiv suv hovuzlari (UZV)ni joriy etish.

Baliqchilik sohasida tadbirkorlarning malakasini oshirish uchun chet el mamlakatlaridan mutaxassislarni jalb qilish.

Baliqlar uchun yem ishlab chiqaruvchi BFM Group tomonidan sifatli yem mahsulotlarini O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi.

«FISHLAND ANDIJAN» MCHJ
Ulug'nor tumani

- Loyiha qiymati: 14 mlrd. so'm
- Bank krediti: 7 mlrd. so'm
- Yangi ish o'rinlari: 50 nafar
- Loyiha quvvati: 350 tona baliq etishtirish



2025 YILDA O'ZBEKBALIQSANOAT UYUSHMASI BILAN XAMKORLIKDA AMALGA OSHIRILADIGAN ISHLAR

- ✓ 1 mln. tonna baliq yetishtirish
- ✓ 15 ming gektar suv havzalarini intensivlash

2026 йилда амалга оширилиши белгиланган режалар

1. Соҳани ривожлантириш мақсадида лимончиликка ихтисослашган ҳудудларга лимон кўчатларини етказиб бериш;
2. Лимон етиштиришга ихтисослашган маҳаллаларда лимонзорлар майдонини 2 баробарга ошириш;
3. Лимон етиштиришни кўпайтириш орқали экспортни ҳажмини ошириш;
4. Ҳудудларда ташкил этилган иссиқхоналар фаолиятини соғломлаштириш, янги лимонзорлар ташкил этиш ва айланма маблағга эҳтиёжи бор ташаббускорларга қўшимча кредит маблағларини ажратиш;
5. Соҳани ривожлантириш орқали аҳолини бандлигини таъминлаш;
6. Baliqchilik sohasini rivojlantirish b'uyicha kredit ajratiб, baliq, etishtirishni k'upaytirish

Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan loyihalarga ajratilgan mablag'lar aholini kelgusida sifatli xizmatlar va mahsulotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

So'nggi yillar davomida Turonbank joriy kredit portfeli sifatini yaxshilash bo'yicha izchil ish olib bordi.

Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti yuridik va jismoniy shaxslarning muammoli qarzlarni undirmoqda.

Bankning muammoli portfeli bilan ishlash

Prinsiplar

- Bankning kredit portfeli sifatini yaxshilashga e'tibor qaratish.
- Muammoli aktiv qiymatini minimal chiqim bilan maksimal darajada imkon qadar tiklash.
- Muammoli qarzlarni bilan ishlash bo'yicha chora-tadbirlarning samarali, operativ, o'z vaqtida amalga oshirilishi.
- Kredit portfelida NPL ulushini 3,0%dan ortiq bo'lmagan darajada cheklash.
- Muammoli qarzlarni bilan ishlash chog'ida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga so'zsiz rioya etish.

Usullar

- Sudgacha tartibga solish va boshlang'ich chora-tadbirlar, ular qarzdorlarni muammoli qarzlarni qoplashga rag'batlantirishga oid turli xil aksiyalar o'tkazishni o'z ichiga oladi (Soft Collection).
- Qarzni restrukturizatsiya qilish.
- Hard Collection.
- Sudda ish yuritish, to'lov talabnomalarini taqdim etish, ijro ishi yuritish (Legal Collection).
- Garovdagi mol-mulkni realizatsiya qilish.

2. Majburiyatlar

2025-yil oxiriga kelib bank majburiyatlari 18,6 trln. so'mni tashkil etadi. 2026-yilga kelib 20,5 trln. so'm darajasida bo'lishi kutilmoqda, o'sish esa 10,4 foiz darajasida bo'lishi rejalashtirilmoqda.

	Dek. 24	Noyabr. 25	Dek. 25*	Dek. 26*	%
MAJBURIYATLAR	15666,4	18303,2	18612,0	20749,5	11%
Talab qilib olinguncha depozitlar	1695,3	1446,9	1458,0	1562,9	7%
<i>Korporativ</i>	653,8	649,3	650,0	662,4	2%
<i>KO'B</i>	663,5	515,4	528,0	548,5	4%
<i>Chakana</i>	377,3	282,2	280,0	352,1	26%
Muddatli depozitlar	3967,0	5442,0	5641,0	6064,0	7%
<i>Korporativ</i>	261,8	386,9	390,0	429,8	10%
<i>KO'B</i>	393,3	846,1	850,0	1066,1	25%
<i>Chakana</i>	1662,4	2194,2	2200,0	2470,3	12%
<i>Gaznachilik</i>	1649,5	2014,8	2201,0	2097,7	-10%
Boshqa banklarga depozitlar	1878,0	1851,3	1887,0	1895,1	1%
To'lanadigan kreditlar va lizing operatsiyalari	7812,0	8876,6	9133,0	10278,4	13%
Boshqa majburiyatlar	280,8	601,8	413,0	949,1	130%

Mijozlarning mablag'lari 2026-yil oxiriga kelib 2025-yil oxiridagi prognozga nisbatan 7,6 trln. soʻmni tashkil etadi (9%ga oshish).


Talab qilib olinguncha hisobraqamlar 2026-yilda 7%ga oʻsish prognoz qilinmoqda. Asosiy oʻsish drayverlari – chakana – 26%, korporeyt – 2%. KOʻB oʻsishi – 4%.

Muddatli depozitlar 2026-yilda 7% oʻsishni tashkil etadi. Asosiy oʻsish drayverlari – KOʻB – 25%, chakana – 12%.

Boshqa banklardagi depozitlar – 1% ga oʻsish rejalashtirilmoqda.

Olingan kredit va majburiyatlar- 13% ga oshib 2026 yil oxirida 10,3 trln.soʻmni tashkil etadi.

Boshqa majburiyatlar – 130%ga oʻsib, 949,1 mlrd. soʻmni tashkil etadi. Bunda 20 mln. AQSH dollari miqdorida subordinar qarz majburiyati hisobiga oshish nazarda tutilgan.



“Turonbank” ATBning 2026-yil uchun moliyaviy resurslari 5 700,0 milliard soʻmni tashkil etadi. Shundan 1 trln. 240 milliard soʻm – kredit liniyalaridan, jismoniy va yuridik shaxslardan 720 milliard soʻm miqdoridagi mablagʻlarni jalb etish rejalashtirilmoqda.

3. Ustav kapitali

Bankning umumiy kapitali 2025-yil oxiriga kelib 2 092,8 mlrd. soʻmni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. 2026-yilga kelib ushbu raqam 2 248,1 mlrd. soʻmni tashkil etadi.

Ushbu koʻrsatkich boʻyicha qoldiqning oʻsishi – 7,4%ni tashkil etadi. Ustav fondi 110 mlrd. soʻmga, bankning assosiy vositalari bino va inshootlar sotilishi hisobiga oshiriladi.

Bankning faol mijozlari soni 2025-yil oxiriga kelib 31 000 nafarga yetadi, 2026-yilga kelib esa ushbu raqam (prognoz) 34 100 taga yetishi rejalashtirilgan. O'zgarish 10,0 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Bugungi kunda bankda bank xizmatlari ko'rsatish ofislari soni 51 tani tashkil etadi, 2026-yilga kelib optimallashtirish hisobiga ko'rsatkich (prognoz) 45 taga yetadi. O'zgarish 6 taga kamayish kutilmoqda.

VII. 2026-YILGI DAROMADLAR VA XARAJATLAR PROGNOZI

1. Daromadlar

Sof foiz daromadlari 2026-yil oxiriga kelib kredit portfeli o'sishi hisobiga ta'minlanadi va 383,9 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bunda foizli daromadlar 2,1 trln.so'm– 23% o'sish, Foiz xarajatlar esa 1,7 trln.so'mni tashkil qiladi.

Sof komission daromadlar – foyda olishni oshirish uchun tranzaksiya bankingi, vositachilik haqi, valyutadagi daromadlarga ko'proq e'tibor qaratish lozim. Sof foizsiz daromadlar 351,4 mlrd. so'mni tashkil qiladi. Ko'rsatilgan xizmatlardan va vositachilikdan daromadlar 246,6 mlrd. so'mni tashkil etadi, xorijiy valyutadagi foyda esa 104,8 mlrd. so'mga yetishi prognoz qilinmoqda.

2. Xarajatlar

Operatsion xarajatlar eskirish xarajatlar salmoqli darajada oshadi, Ish xaqi va unga tenglashtirilgan xarajatlar – jami operatsion xarajatlarning 54%ni tashkil etadi.

Rezervlar – ehtimoliy muammoli kreditlar zaxirasi, ayniqsa KO'B uchun nazarda tutilgan. Budjetga kiritilgan rezervlashga sof xarajatlar darajasi qariyb 39,8 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Sof foyda yil oxirigacha 24,5 mlrd. so'm miqdorida bo'lishi rejalashtirilgan. 2026-yilda ushbu ko'rsatkich (prognoz) 45,6 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan barcha iqtisodiy normativlar belgilangan me'yorlar darajasida bo'lishi nazarda tutilgan.

VIII. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2026-yilga mo'ljallangan Biznes – rejasini” 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

Ushbu Biznes-rejasiga Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari, tegishli Bank Qo'mitalari a'zolari, Bankning barcha tarkibiy bo'linmalari, Bank xizmatlari markazlari rahbar va mas'ul xodimlarining rioya etishlari majburiy hisoblanadi.

Mazkur ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2026-yilga mo'ljallangan Biznes – rejasini” kuchga kirishi munosabati bilan Bank Kuzatuv kengashining 2024-yil 29-noyabrdagi K-76-son qarori bilan tasdiqlangan ““Turonbank” aksiyadorlik tijorat bankining 2025-yilga mo'ljallangan Biznes – rejasini” o'z kuchini yo'qotadi.

Kiritildi:

Moliyaviy hisobotlar departamenti direktori


J.B. Azimov